

7-10-2019

CRAFTSMANSHIP IN THE ERA OF AMIR TEMUR AND TEMURIDS

Zulfiya Ahmadjonovna Khamidova
Doctorate (PhD), TSEU

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu>



Part of the [Education Commons](#)

Recommended Citation

Khamidova, Zulfiya Ahmadjonovna (2019) "CRAFTSMANSHIP IN THE ERA OF AMIR TEMUR AND TEMURIDS," *Scientific Bulletin of Namangan State University*. Vol. 1 : Iss. 3 , Article 17.
Available at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol1/iss3/17>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in Scientific Bulletin of Namangan State University by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact sh.erkinov@edu.uz.

CRAFTSMANSHIP IN THE ERA OF AMIR TEMUR AND TEMURIDS

Cover Page Footnote

???????

Erratum

???????

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA HUNARMANDCHILIK

Xamido va Zulfiya Ahmadjonovna
Doktorant(PhD), TDIU

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada muallif asosiy e`tiborni, Amir Temur va temuriylar davrida hunarmandchilik va uning turli tarmoqlarini rivojlanishi, buning uchun yaratilgan shart-sharoitlar hamda uning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida ahamiyatini atroflicha yoritishga qaratgan.*

***Kalit so`zlar:** Amir Temur, "Temur tuzuklari", Temuriylar davri, Movarounnahr, Samarqand, hunarmandchilik turlari, ishlab chiqarish, savdo-sotiq.*

CRAFTSMANSHIP IN THE ERA OF AMIR TEMUR AND TEMURIDS

Khamidova Zulfiya Ahmadjonovna
Doctorate (PhD), TSEU

***Abstract:** In this article, the author focuses on covering craftsmanship development and its various sectors during the time of Amir Temur and the Temurids, also the granted opportunities and importance in the socio-economic life of the country.*

***Key words:** Amir Temur, Temur's Orders, Temurid Period, Movarounnahr, Samarkand, Types of Handicraft, Production, Trade.*

МАСТЕРСТВО В ЭПОХУ АМИРА ТЕМУРА И ТЕМУРИДОВ

Хамидова Зулфия Ахмаджоновна
Докторант (PhD), ТГЭУ

***Аннотация:** В этой статье автор сосредотачивается на том, чтобы охватить развитие ремесленничества и его различных отраслей во времена Амира Темура и Темуридов, созданные возможности и его значение в социально-экономической жизни страны.*

***Ключевые слова:** Амир Темура, Правила Темура, эпоха Темуридов, Мовароуннахр, Самарканд, виды ремесел, производство, торговля.*

Ma`lumki, Movarounnahr va Xurosonda temuriylar hukmronligi davrida markaziy hokimiyatning ma`lum darajada barqarorligi, shubhasiz, mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o`rin tutgan hunarmandchilik munosabatlarining rivojlanishi uchun keng yo`l ochib bergan, chunki, Amir Temur va temuriylar yetakchiligida, mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy farovonlikni oshirishda hunarmandchilikka davlat siyosati darajasida e`tibor berilgan. "Temur tuzuklari" da ta`kidlanishicha: "Saltanatimni o`n ikki toifadagi kishilar bilan mustahkamladim. ... O`n birinchi toifa – kasbu hunar egalaridir; bularning har toifa va sinfidan bo`lganlarini davlatxonamga olib kelib, o`z o`rdamdan o`rin belgiladimki, safarda va turg`unlikda sipohimga kerak yaroqlar va boshqa jihozlarni hozirladilar"[1]. Bu davrda hunarmandchilikning turli tarmoqlari rivoj

topib, iste'mol mollarini ishlab chiqarish g'oyat ko'paya boshlagan. Natijada, ichki chakana savdo va pul munosabatlari kengayib, u shahar va uning atrofidagi aholi, ayniqsa omilkor tabaqalarning alohida e'tiborini tortgan.

Shuni ta'kidlash kerakki, bu davrda Movarounnahrning Samarqand, Buxoro, Shohruxiya, Andijon, Termiz, Shahrisabz, Qarshi, Toshkent va boshqa ko'pgina shaharlari o'zining topografik qiyofasi, aholisining kasb-kori, ichki va tashqi aloqalari bilan o'rta asr Sharqining hunarmandchilik rivoj topgan aholi gavjum savdo markazlariga aylandi. Shaharlarda hunarmandlarning alohidalashuvi bilan bog'liq bo'lgan yangi-yangi guzarlar, ko'chalar, bozor rastalari, tim va toqlar (usti gumbazli bozor) – chorsular vujudga keldi. Xususan, yuqorida ta'kidlangan shaharlarda zargaron (zar-garlik), misgaron (misgarlik), so'zangaron (ignasozlik), sovutsozon (sovutsozlik), sangtarashon (toshta roshlov-chilar), shishagaron (shisha shiruvchilar), charmgaron (ko'nchilik), kamongaron, pichoqsozlik, egarchilik kabi hunarmandchilik mavzolari shular jumlasidandir.

Hunarmandchilik sohasida to'qimachilik, kulolchilik, chilangarlik (metall buyumlar yasash), temirchilik va binokorlik yetakchi o'rinni egallagan. Mazkur davrda shahar va qishloq aholisi, dashtlarda yashovchi yarim ko'chmanchi va ko'chmanchi chorvadorlar o'rtasida to'qimachilik mahsulotlariga talab g'oyat katta bo'lgan. Shaharlarda ip, ipak, jun, zig'ir va kanop tolasidan turli xildagi rangdor, guldor hamda nafis va dag'al gazmollar ko'plab to'qib chiqarilgan. Masalan, oq, yashil, malla, zangori, binafsha va surrang ip kalavalaridan karbos, ya'ni bo'z, guldor chit, oq surp, nafis zarlar berilgan mayin doka—futa, jundan olachalar, kanop tolasidan qaton kabi turli xil gazlamalar to'qilgan. Bu matolar nisbatan arzon bo'lib, undan ichki kiyimlar, ustki liboslarning astarlari, ko'rpa-to'shaklar tikilgan. Shahar va qishloqlarning mehnatkash aholisi hamda dashtlik chorvadorlar butkul karbosdan[2] kiyingan. Mehnatkash aholi o'rtasida guldor chit hamda «Samarqand va Buxoro olachasi» kabi gazmollar ham ayniqsa qadrlangan. Hunarmandchilik mazkur xudud aholisining qadimiy kasb-korlari hisoblanib, uning rivoji uchun qulay ijtimoiy-iqtisodiy sharoit mavjud bo'lgan.

Amir Temur tomonidan o'tkazilgan bayramlarda, hunarmand va savdo ahillari o'z ko'rgazmalari bilan qatnashgan. Hirotning kimxob to'quvchilari ko'chma dastgohda mato to'qib, o'z hunarlarini namoyish etishgan. Aynan kimxob, duxoba to'qish o'sha davr qo'l mehnati uchun ancha murakkab kasb bo'lib, nozik hunar hisoblangan. Rui Gonsales de Klavixoning qayd etishicha, "Katta to'y munosabati bilan podshoh: "Samarqand shahar savdo ahli: sarroflar(pul maydalovchilar, chitfurushlar, javohir va boshqa turli-tuman molar bilan savdo qiluvchilar, oshpazlar, qassoblar, nonvoylar, tikuvchilar, kafshdozlar va shahardagi boshqa hunarmandlar podshoh o'rdasi joylashgan yalanglikka chiqib, chodir tikib, savdo qilsinlar, har bir kosib qarorgoh bo'ylab kezib, oyin-kulgu bilan odamlarning bahri-dilini ochsinlar", -- deb buyurdi"[3].

Temurning yog'och tobuti ustiga yopilgan guldor mato, Ulug'bekning kiyimi hamda Shohizindada ochib o'rganilgan Temuriylar davriga mansub maqbara dahmasida saqlangan yo'l-yo'l shoyi to'n kabi topilmalar mazkur davr matolari to'qilishi yuqori sifatli va berilgan rango-rang badiiy jilosi jihatidan mukammal ekanini, shuningdek to'qimachilarning asriy tajriba va boy hunarmandchilik an'alariga ega bo'lganini ko'rsatadi. Shaharlarning to'qimachilik mahallalari va guzarlarida, ularga yaqin joylarda pillakashlar, kalavachilar hamda mato va kalavalarga bo'yoq beruvchi nilchi rangrezlar, chitga gul bosuvchi muhrkash va chitgarlar ham istiqomat qilishgan.

Misgarlik mamlakatning katta-kichik shaharlarida ham ancha rivoj topgan. Mis va jezdan turli xil ro'zg'or buyumlari yasalgan va mayda mis chaqalar zarb qilingani ham ma'lum.

Bu davrning yana bir o'ziga xosligi, zeb-ziynat buyumlari ommalashgan edi. Odatda, hukmron tabaqa vakillarining qimmatbaho zeb-ziynat buyumlarga bo'lgan talabi katta bo'lib, mamlakatdagi osoyishtalik ushbu hunar turining rivojlanishida muhim omil bo'lgan. Xususan, Samarqand va Hirotida zargarlik rivoj topdi. Oltin, kumush va jez qotishmalaridan turli xil zeb-ziynatlar va qimmatbaho buyumlar yasaydigan va ularga nozik did bilan nafis badiiy ishlov beruvchi mohir zargarlar soni ko'paygan va albatta, ularning faoliyati hukmron tabaqa vakillari tomonidan alohida qadrlangan. Rui Gonsales de Klavixoning qayd etishicha, "...Podshohning nevarasi Pirmuhammad milliy udumga binoan juda yaxshi kiyingan edi. Ustida ko'k beqasam yaktak, yaktakning ikki yelkasi, ko'kragi va yenglariga bittadan zarhal halqa tikilgan. Boshidagi qalpog'i yirik marvarid va qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan, qalpoqning tepasiga qadalgan la'l yonib turardi[4]. ...Odamlar joy-joylariga xotirjam o'rnatishgach, shohning katta xotini Kan'o(Saroy Mulk xonim) ko'shk yonidagi sarpardalarning biridan chiqib keldi. Saroy Mulk xonim bunday kiyingan edi: egnida zarhal bezakli, etagi yerda sudralib turgan uzun va keng, yengsiz va yoqasiz qizil shohi ko'ylak, ko'ylak belidan hech bir kesib toraytirilmagan holda etagigacha kengayib borgan. Malikaning yuziga yupqa oq mato tutilgan, boshida xuddi jangda kiyiladigan dubulg'aga oxshash uchli qizil bosh kiyim.Ularga ko'plab durru noyoblar, yoqut, feruza va boshqa xilma-xil(qimmatbaho) toshlar juda chiroyli qadalgan. Bosh kiyimning zarhal bilan tikilgan va xonim yelkasiga tushib turgan qismiga ham qimmatbaho toshlar va durri noyob bilan bezatilgan chiroyli tilla bargak qadalgan. Qalpoq uchi bamisoli jajji ayvonga o'xshaydi, favqulodda chiroyli, ikki barmoq yo'g'onligida yal-yal yonib turgan, tiniq uchta dona yoqut o'rnatilgan"[5].

Bu davrda kulolchilik ham mislsiz darajada rivojlanib, hunarmandchilikning ko'p tarmoqli sohasiga aylandi. Asosan kosa, xum va xumchalar kabi buyumlar tayyorlangan. XIV-XV- asrlarga mansub sirlangan sopol buyumlar badiiy jihatdan rango-rangligi, shakli va turining xilma-xilligi hamda sifatlilik bilan ajralib turadi.

Temur hukmronligi davrida tosh yo'nish (sangtarosh) va unga sayqal berib, o'ymakor naqshlar va xusnixat yozuvlar bitish san'ati kamolotga yetgan.

Mamlakatning yirik shaharlari va viloyatlarida, xususan Samarqand va Hirotda qurilish ishlari avj olib, binokor ustalarga talab ortdi. Binokorlar orasida me'mor, muhandis, g'isht teruvchi, suvoqchi-ganchkor, ganchkor-navdosh, tosh yo'nuvchi (sangtarosh), duradgor (najor) va rassomlarning mavqei ortib borgan. Binokor ustalar kasblariga ko'ra, g'isht terib imorat qaddini bino qiluvchi (banno)lar, parchin[6] va girixlar[7] qoplab imoratga pardo beruvchi «ustod»larga ajralgan.

Turli mamlakatlar bilan kechgan qizg'in savdo, iqtisodiy, madaniy aloqalar natijasida yangi hunar turlari taraqqiy etgan, jumladan shishasozlik. Samarqandda hatto shishasozlar mahallasi bo'lgan. Manbalarda qayd etilishicha, shishadan turli shakldagi idishlar: ko'zacha, qadah, siyohdon (dovot), doridon, surmadon, tuvak va sumaklar hamda boshqa turli xil ro'zg'or buyumlari yasalgan. Muhtasham binolar va davlatmand shaharlik zodagonlarning uy-joylari qurilishida rangli oyna-lardan foydalanilgan.

Binokorlik, to'qimachilik va boshqa ko'pgina kasb-hunarlarining rivojida yog'ochsozlik muhim ahamiyat kasb etgan. Yog'ochdan xilma-xil asbob-uskunalar hamda buyumlar (to'dimachilik dastgohlari, ikki g'ildirakli arava, egar, g'isht va poyabzal qoliplari, sandiq, quti, beshik, belanchak, qush qafaslari, taroq va hassalar) yasalgan. Mohir yog'ochsoz ustalar yog'och o'ymakorligini takomillash-tirib, naqshinkor eshik, panjara, ustun, toqi-ravoq, bolor, xontaxta, kursilar va boshqa ashyo va jihozlar yasaganlar.

Samarqand hunarmandchiligida, ayniqsa, qog'oz ishlab chiqarish alohida o'rin tutgan. Shahar yaqinidagi Obirahmat arig'i sohilida qog'oz ishlab chiqariladigan maxsus ob'juz va korxonalar bo'lgan. Bu yerda eskirgan bo'z kiyim, latta va mos paxtalardan bo'tqa—qog'oz xom ashyosi tayyorlanib, varoqlar quyilgan, so'ngra ularga sayqal berilgan. Samarqand qog'ozi sifat jihatidan xitoy qog'ozi bilan raqobatlasha olgan hamda o'rta asr Sharq xattolari orasida g'oyat mashxur bo'lib, uning bir qismi birmuncha chetroq o'lkalarga ham chiqarilgan. Uni ishlab chiqarish hunarmandlarning siri hisoblangan. Shuni ham alohida ta'kidlash o'rinliki, temuriylar davri yozma manbalari Samarqand qog'oziga bitilgan.

Bu davrda teri oshlash, charm pishirish (charmgar kemuxtagar) kasblari ham ancha rivoj topgan. Movarounnahr va Xurosonning deyarli hamma yirik shaharlarida o'rta asr hunarmandchiligining barcha tarmoq va sohalari bo'yicha ixtisoslashgan korxonalar, do'kon, ustaxona va rastalar bo'lgan.

Samarqandda novvoyxonalar, somsapazlik va anvoyi shirinliklar pishiradigan halvopazlik do'konlari ko'p bo'lgan.

Shubhasiz hunarmandchilikning yuksalishi ko'p jihatdan ichki va tashqi savdoni umumiy holatiga bog'liq. Shuning uchun ham Temur va uning vorislari mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutgan tijoratchilikning kengayishiga ko'p ahamiyat

berganlar. Bu davrda davlat hududlari va viloyatlari bo'ylab kesib o'tgan barcha karvon yo'llarida qator katta-kichik rabotlar[8] va yomlar[9] barpo etilgan, karvonsaroylar va xonaqohlar qurilgan. Natijada karvonlar qatnovi jonlanib ichki savdo barqarorlashgan. Amir Temur o'zining "Temur tuzuklari" da shunday ta'kidlaydi: "Amr qildimki, xarob bo'lib yotgan yerlarda korizlar qursinlar, buzulgan ko'priklarni tuzatsinlar, ariqlar va daryolar ustiga (yangi) ko'priklar qursinlar, yo'l ustida har manzilgohga rabotlar bunyod etsinlar. Yana amr etdimki, katta-kichik har bir shahar, har bir qishloqda masjid, madrasa va xonaqohlar bino qilsinlar, faqiru miskinlarga langarxona[10] solsinlar, kasallar uchun shifoxona qurdirsinlar va ulardaishlash uchun tabiblar tayinlasinlar. har bir shaharda saroy va qozixona qursinlar. Va raiyatu ziroatni qoriqlovchi qurchilar ham tayinlasinlar"[11]. Movorounnahr va Xurosonning markaziy shaharlarida tepasi tom qilib yopilgan yangi-yangi bozor — chorsularning soni ko'payib, rastalar kengayadi. Ichki savdo gavjumlashib, shaharlar bilan dehqonchilik vohalari va ko'chmanchi chorvador dasht aholisi o'rtasida savdo-sotiq aloqalari kengayib borgan. Markaziy shaharlar mol ayirboshlash savdosida muhim rol o'ynay boshlagan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, XV-XVI asr oralig'i o'ziga xos iqtisodiy-siyosiy jihatdan barqarorlashgan davr sifatida qaraladi. Shu bilan birga Amir Temur va temuriylar davrida mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy farovonlikni oshirishda hunarmandchilikka davlat siyosati darajasida e'tibor berilganligi tarixiy manbalarda o'z aksini topgan. Iqtisodiy islohotlarining o'tkazib turilganligi hunarmandchilik sohalarini rivojlanishi va mahsulotlari hajmining ortishi, mamlakatda ichki va tashqi savdoning kengayishida ta'sir ko'rsatuvchi yetakchi omillardan biriga aylangan. Natijada Movarounnahr va Xurosonda markaziy hokimiyatning barqarorligi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ravnaq topishiga ta'sir ko'rsatgan.

References

1. Xalqaro Amir Temur jamg'armasi. Temur tuzuklari. T.: O'zbekiston. 2011 yil. 79-bet.
2. Karbos – paxta tolasidan to'qilgan mato. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. T.: O'zbekiston, 1996. 511-b.
3. Rui Gonsales de Klavixo. Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406 yillar). T.: O'zbekiston, 2010. 174-b.
4. Rui Gonsales de Klavixo. Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406 yillar). T.: "O'zbekiston", 2010. 177-b.
5. Rui Gonsales de Klavixo. Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406 yillar). T.: "O'zbekiston", 2010. 180-b.
6. Parchin (fors.) – me'morlik bezaklarida ishlatiladigan sirlangan sopol taxtachalar; turli ranglarda sirlanishi bilan koshinan farq qiladi. www.vikipediya.uz
7. Girih (fors. – muammo, tugun, chigal) – murakkab handasiy naqsh; me'morlik va badiiy hunarmandlikda keng ishlatiladi. www.vikipediya.uz

8. Rabot – karvon qo`nib o`tdigan joy; karvonsaroy. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. T.: O`zbekiston, 1996. 514-b.
9. Yom(yoki yomxona) – mo`g`ullar va temuriylar davrida taxminan har bir kunlik yo`lda elchilar, choparlar va davlat arboblarning to`xtash joyi. Bu yerda oziq-ovqat, tunash uchun joy va ot-uloviga yem-xashak berilgan. .Mazkur asar. 509-b.
10. Langarxona—yo`lovchilar qo`nib o`tdigan yer: miskin va yetim-yesirga taom beriladigan joy; g`aribxona. Xalqaro Amir Temur jamg`armasi. Temur tuzuklari. T.: O`zbekiston. 2011 yil. 122-bet.
11. Xalqaro Amir Temur jamg`armasi. Temur tuzuklari. T.: O`zbekiston. 2011 yil. 122-bet.